

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN SAMOLYOT

МОЩНОСТЬ ДВИГАТЕЛЯ 12 л.с. (8,8 кВт)
МАССА ДВИГАТЕЛЯ 77 кг
МАКСИМАЛЬНАЯ СКОРОСТЬ 48 км/ч
ЭКИПАЖ 1 человек

ПЛОЩАДЬ КРЫЛА 47 м²
 ДЛИНА 6,4 м

РАЗМАХ КРЫЛЬЕВ 12,3 м
 ВЫСОТА 2,7 м

ОСНОВНОЙ МАТЕРИАЛ **ДЕРЕВО** (Ель)

МАССА:
 ○ ПУСТОГО 274 кг
 ○ СНАРЯЖЁННОГО 338 кг

Орвилл Райт
Уилбур Райт

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.
 +998 97 420 88 81
 +998 94 404 00 00
 WWW.TAQIQOT.UZ
 WWW.CONFERENCES.UZ

APREL №51

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 51-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Muxammadova Maxbuba Mo'minovna HASANXOJA NISORIY SHAYBONIY HUKMDOR AVAZ G'OZI SULTON VA UNING IJODIY MAHORATI HAQIDA	7
2. Vafoqulova Go'zal Ochilovna MUTASSAVUF IJODKOR ASLIYATI	9
3. Vafoqulova Go'zal Ochilovna “ZARBULMASAL” ASARI BADIYIY Tahlili	11
4. Маҳмудов Қодирхон Алимович ҚУРЪОНИ КАРИМДА ТАКРИР САЊЪАТИНИНГ МОҲИЯТИ.....	13
5. Матязова Нилуфар Сабировна ДОСТОНЛАРДА АВАЗХОН ОБРАЗИНИНГ ХАЛОСКОРЛИК ФАОЛИЯТИ	16



АДАБИЁТ

HASANXOJA NISORIY SHAYBONIY HUKMDOR AVAZ G‘OZI SULTON VA UNING IJODIY MAHORATI HAQIDA

Muxammadova Maxbuba Mo‘minovna

BuxDU mustaqil izlanuvchisi,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi
mahbuba93mo‘minovna@mail.com,
+99890 744 72 02

Annotatsiya. Maqolada XVI asrda yashagan, shayboniyzodalardan bo‘lgan hukmdor Avaz G‘ozi Sulton haqida so‘z boradi. Hasanxoja Nisoriy bizgacha yetib kelgan yagona asari “Muzakkiri ahhob” tazkirasida Avaz G‘ozi Sultonning ijodiy mahoratiga asosiy e‘tiborni qaratadi. Garchi Sultonga bag‘ishlangan fiqra nihoyatda ixcham bo‘lsa-da, lekin Avaz G‘ozining adabiy mahorati, ijodkor sifatidagi qirralari inkishof etiladi.

Kalit so‘zlar: Hasanxoja Nisoriy, “Muzakkiri ahhob”, Avaz G‘ozi Sulton, shoh bayt, istiora.

Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkiri ahhob” tazkirasida shayboniylar avlodidan bo‘lgan Avaz G‘ozi Sultonga g‘oyatda ixcham maqola bag‘ishlagan. Ammo Avaz G‘ozining shoirlik iste‘dodiga g‘oyatda yuksak baho bergan: “Yaxshi she‘rlari va yoqimli so‘zlari qalblarning yoqtirgani turur. So‘zining javohiri ma‘no sarroflari oldida o‘zining baland bahosiga ega.” [3;51]

Tazkiranavis Avaz G‘ozi Sulton ijodidan bir g‘azal matla‘i va yana bir uning ijodiga mansub shoh baytni namuna sifatida keltirgan. Shoir she‘riy merosidan tanlangan har ikkala misolning ham o‘zbek tilida ekanligi muhim ilmiy qimmatga ega. Matla‘:

To telbaligim arsai olamni tutubtur,

Majnunni, meni ko‘rgali, davron unutibtur [3;51]

Majnunning telbaligi-uning butun vujudini egallagan ishqning oqibati. Shu ishq uning aqlu hushini yo‘q qilib, telbaga aylantirgan. Majnunda hushdan xabar, ruhdan asar qolmagan. Bu telbalikning qamrovi nihoyatda keng. Miskinlik, dardmandlik, mubtalolik, zorlik, xastalik, musibat, firoq, malomat, hajar, oh uning ayrim irmoqlari. Bu irmoqlarning hammasi birlashib, junun daryosiga quyiladi. Majnun mana shu junun daryosini o‘z qalbiga sig‘dira olgan sarhadsiz kenglik, ishq va oshiqlik timsoli. “Mening oshiqligim butun olamni tutdi. Shuning uchun ham davron meni ko‘rish uchun Majnunni unutdi,”-deydi Avaz G‘ozi Sultonning lirik qahramoni. G‘azalda ishtirok etgan obrazlar (oshiq va Majnun) an‘anaviy, lekin ularning talqinida o‘ziga xoslik bor. Shoirning mahorati shundaki, u ishq va oshiqlik ramzi Majnun timsolidan ijodiy foydalana olgan. O‘z ona tili imkoniyatlarini mukammal o‘zlashtirib, uni maqsadli tarzda ishga solgan. Matla‘ ravon o‘qiladi. Unda vazn nuqta‘i nazaridan ham, so‘z qo‘llash jihatidan ham noqislik nazarga tashlanmaydi. “Muzakkiri ahhob” dan o‘qiyimiz: “Uning g‘azalidagi bu bayti raso xub va benihoya marg‘ub chiqqan. Bayt:

Novaklari mendin o‘tub ag‘yorga tegdi,

Men bildimu jonimki, nelar mendin o‘tubdur”. [3;51]

Fikrimizcha, tazkiranavis bayt ta‘rifida bitgan: “raso xub va benihoya marg‘ub” so‘zlari zamonaviy adabiyotshunosligimizdagi “shoh bayt” ifodasi ma‘nosiga muvofiq keladi.

Hasanxoja Nisoriy o‘quvchi hukmiga havola qilayotgan satrlar mazmunidan anglashiladiki, bayt tanlangan g‘azal mumtoz adabiyotning keng ommalashgan mavzui ishq talqiniga bag‘ishlangan. Unda ikki an‘anaviy obraz oshiq va ma‘shuqa ishtirok etadi.

Ma‘shuqaning go‘zalligi tavsifi, tashqi qiyofasi manzaralari oshiq nigohi orqali beriladi. An‘anaviy g‘azallarda yorning yuzi-gulga, lolaga, oyga, quyoshga, jannatga, navro‘zga, gulistonga, gulzorga; qomati-sarvga, shamshodga, ar‘arga, to‘biga (jannat daraxti); labi-la‘lga, uzukning ko‘ziga, qandga, asalgga, kavsarga, tiriklik suviga (“obi hayvon”); zulfi-kamonga,



sunbulga, mushkka, rayhonga, tunga; ko‘zlari-cho‘lponga, ohuga, nargisga, huru g‘ulmonga, lola jomiga; xatti-sabzaga, rayhonga, binafshaga, yosumanga (yasmin), laylatul-qadr kechasiga; sochi-sunbulga, mushkka, yaldo tuniga; qoshlari-kamonga, hilolga, osmonga, ikki tovusga, ikki hindubachchaga, xoli-zangi bachchaga, hinduga; kipriklari (mijgon)-kamonning o‘qiga; qovog‘i-bodomga; beli-qilga, xipchaga; tishi-durga qiyoslanadi.

Avaz G‘ozi Sulton ijodidan keltirilgan baytda yorning kipriklari tasvir asosida turadi. Bayt istiora san‘ati bilan boshlangan. Shoir “novak” (kamonning o‘qi) so‘zini o‘z ma’nosida emas, majoziy ma’noda qo‘llagan. O‘q (“novak”) Sharq mumtoz adabiyotida to‘g‘rilik ramzi sifatida ham ishlatiladi. Mazkur badiiy timsol iste’dodli o‘zbek shoiri Yaqiniyning “O‘q va yoy” munozarasida har ikki ma’noda talqin qilingan. Muhokamamiz asosida turgani uchun “novak”ning oshiqona satrlardagi badiiy ifodasi bilan muxtasar tanishamiz:

Havo qilsa o‘qung jon saydi uchun,
Ani ko‘nglum qushi tutqay havodin.
Gar havo qilsa yuraktin o‘tkali novaklaring,
Jon bila ko‘nglum qushi tutqay havodin, ey begim. [4;259]

Mavlono Yaqiniy fors-tojik tilida bitilgan baytlarida ham bu badiiy timsoldan mohirona foydalangan:

Zi dil bar mekasham sad novaki oh,
Ki, az jon biguzarad tiri tu nogoh [3;261]

Turkigo‘y shoirning o‘zbek tilidagi satrlarida “ko‘nglum qushi” istiorasi yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiladi. Oshiqning “ko‘ngil qushi” go‘yo jon va ko‘nglining himoyachisi sifatida maydonga chiqadi. Mavlono Yaqiniy talqinicha, ma’shuqaning novaklari (kipriklari) oshiqning jonini ovlash uchun yuzlansa, ularni “ko‘ngil qushi” oshiq vujudiga yetib kelmasidan havoda ushlab qoladi. Bordi-yu o‘sha kipriklar (novak) oshiq yuragini teshib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda “jon ila ko‘ngil qushi” birlashib uni bo‘shliqda tutib qoladilar. Mutafakkir shoir “havo” so‘zining ma’no oqimlarini san’atkorona ishga solib, o‘z fikrining ta’sirchanligini yanada kuchaytiradi (tajnis san‘ati).

Mavlono Yaqiniyning forsiy tildagi baytida “novak” timsolidan foydalanib, yana bir o‘ziga xos yangi badiiy manzara yaratiladi. Unda oshiq yoriga qarab aytadi: Dilimdan oh tortib sug‘urib olingan yuzlab kipriklaringni topa olasan. Buning ustiga yana sen otgan o‘qlar (novak) jonimni ham teshib o‘tadi. Jon, dil (ko‘ngil) va novak (kiprik) bahsi forsiy tildagi g‘azal matla’sida ham davom ettirilgan. Ammo bu timsollar ikki tildagi satrlarda yangi badiiy bo‘yoqda, yangi qirralari bilan harakatga keltirilgan.

Mavlono Yaqiniyning tojik tilidagi satrlari Avaz G‘ozi Sulton qalamiga mansub “shoh bayt”ning yangiligini anglashga yaqindan yordam beradi. Mavlono Yaqiniy talqinidagi ma’shuqa otgan kiprik o‘qlari oshiq jonini teshib o‘tadi. Avaz G‘ozi Sulton ifodasida esa yor novaklari oshiq jismidan o‘tib, ag‘yorga ham borib tegadi. Obraz-an’anaviy, ammo uning badiiy talqiniga Avaz G‘ozi Sulton yangilik qo‘sha olgan. O‘zigacha bo‘lgan shoirlarning an’analarini rivojlantirib, g‘oyat dilkash va ijodiy g‘azal yaratgan.

Avaz G‘ozi Sulton satrlari xush ohangi, ravonligi, tilining soddaligi, tushunarligi, musiqiyliги bilan e’tiborni tortadi.

Ijodkorning yana bir mahorati shundaki, u xalqimizning “O‘zim bilaman, jonim biladi”, “Mendan o‘tganini kim bilsin” kabi ta’birlarini ijodiy laboratoriyasida qayta ishlab, badiiy asar mezonlariga moslab she’rga olib kirgan. Bularning hammasi Avaz G‘ozi Sultonni o‘z uslubiga ega bo‘lgan, ijodiy kengliklarga ko‘tarila olgan shoir, deyishga asos bo‘ladi.

“Muzakkiri ahbob” muallifini esa adabiy hodisalarning mohiyatini teran his qilishga qodir, noziddid olim ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1983.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Нисорий Х. Музакири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993.
4. Муборак мактублар.-Тошкент:Фафур ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1987.



MUTASSAVUF IJODKOR ASLIYATI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Boborahim Mashrab she'riyati tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qissa, qalandariya, jahriya, mazhab, pir, murshid, rido, kuloh, rasul, shayton, iymon.

O'tmishdagi shoirlar orasida xalq ommasi ichiga Mashrabdek kirib borgan va shuhrat topgan ikkinchi bir shoirni topish qiyin. Mashrab xalq xotirasida qalamidan ilohiy she'rlar to'kilgan shoirgina emas, ikkiyuzlamachilikning, soxtakorlikning, nafsga qullikning shafqatsiz dushmani sifatida ham qolgan. Aytish kerakki, shoirning she'riy merosi hanuzgacha to'la to'pilgan emas. Izlagan sari yangi-yangi she'rlari topilmoqda. Shoir she'rlari turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilganligi uchun xatolari juda ko'p. Mashrabning bizga ma'lum she'rlari mumtoz adabiyotimizning keng tarqalgan g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba' (yettilik) janrlarida. Eng ko'pi, shubhasiz, g'azal. Shoir she'rlarining bosh mavzusi — ilohiy ishq. Mashrab she'riyatining so'fiyona ruhi uning „Bu tani xokini-yii ruhi ravonni na qilay?!“ satri bilan boshlanadigan g'azalida, ayniqsa, yorqin ko'rinadi:

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!

Bo'lmasa qoshimdajonona, bu jonni na qilay?!

Xok — tuproq. Ruhi ravon — inson ruhi. Ruhning nimaligini tushuntirish o'ta mushkulligi Qur'oni Karimda ham qayd etilgan. Barcha odamlarning otasi Odam Ato tuproqdan yaratilgan. Demak, hammaning, jumladan, shoirning tani ham tuproqdan. Shoirga nafaqat tuproqdan bo'lgan tan, balki undan ko'p bor yuksak bo'lgan ruh ham kerak emas. U qoshida jonona (jonona deyilganda, xudo ko'zda tutilayapti)ni ko'rmas ekan, jonni ham, ruh deganlarini ham hech deb biladi. Ikkinchi baytda, shoir yanada shakkokroq ko'rinadi:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?

Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?!

Makkaga, uni „baytulloh“ — Allohning uyi sifatida tavof qilgani boriladi. Mashrab bunga ko'nmaydi. U Makkaga yori bilan, boda bilan bormoq istaydi. Shoirning o'z mantig'i bor, albatta. Yor Allohdir. Boda — uning ishq-u muhabbati. U bundan boshqa hech narsani tan olmaydi. Shoir uchun Allohsiz Ka'ba „Ibrohimdan qolgan eski do'kon“ ekani shundan. Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do'zaxin, Bo'lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?! Chinakam so'fiyga xos jihatlar g'azalning ayni shu misralarida yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy kishining Allohga muhabbati, undan qo'rquvi tagida jannatga yetishish maqsadi turadi. Mutasavvuf uchun bunday maqsad ta'magiriik hisoblanadi. So'fiy Yaratganning jamoliga yetishishnigina o'ylaydi. Unga Yaratganga muhabbat sababli jannatga erishish va do'zaxdan qutulib qolishni niyat qilish — uyat. Chunki go'yo muhabbati uchun haq talab qilganga o'xshab qoladi. Chin ishq beg'araz bo'lmog'i kerak. Asar maqta'sida bu fikr ochiq va aniq aytiladi:

Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay?!

She'rdagi savol va xitob ohangi, „jonona“ va „jon“ so'zlaridagi bo'g'in takrori, mumtoz adabiyotimizda ko'p qo'llanadigan ramal vaznining „musammani mahzuz (foilotun, foilotun, foilotun, foilun; foilotun, foilotun, foilotun, foilun) shaklidan samarali foydalanish unga alohida joziba bag'ishlagan. Ayni paytda, shoir ishqining butun mazmun-mohiyati oynadagidek namoyon bo'lgan.

Dunyoga kelib loyiga bilmay bota qoldim,

Darmon yo'qidin necha og'iz so'z qota qoldim.

Nega shoir gapni dunyoning loyidan boshladi? Chunki bu dunyo shunday qurilganki, unga kelgan odam gunoh qilmasligi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, inson degan mavjudotga shunday tabiat berilganki, uning gunoh qilmasdan yashashi mumkin emas. Dunyoning loyi borligi va shoirning unga kelib, bilmay „bota qolishi“ shundan. Inson ko'pincha o'z ixtiyoriga zid yashaydi. Bu uni loyga botiradi.botib yurish har qanday kishining ham darmonini oladi. Shuning uchun



darmonsiz solik dardlarini batafsil va yetkazib ayta olmaydi, bir necha og'iz „so'z qota qoladi". Keyingi baytda shoirning e'tirof-u e'tirozi muayyanlashadi:

Ko'rdumki ani dushmani ruh-u tan ekandur,
Lo o'qi bila ikki ko'ziga ota qoldim.

Tan bilan ruhning oshiq muhabbatiga xalaqit berishi, hatto dushman bo'lishi mumkinligi kishini o'yga toldiradi. Shoirning fikrlash mantig'i shunday: ruh orom istaydi, osoyishtalikni xohlaydi. Tan rohatga, farog'atga talpinadi. Boshqacha aytganda, nafsdan o'zini butkul tiyadi. Aslida, u xohishlarinigina emas, o'zini ham rad etmoqni istaydi. Chunki, yor vasliga, uningcha, „bu tani xok-u ruhi ravon" bilan yetishib murakkab. Unda bu yorug' olam Alloh tushunchasi bilan birlashib ketadi. Shoir ijodida biz ko'rib turgan bu atrof-olam hammasi sir-sinoat va unda faqat Alloh namoyon ekani ifodasini topadi.

Mashrab ijodida „Ne g'urbatlarni chektim, charx bebunyod dastingdan" deb boshlanadigan musaddas ham muhim o'rin tutadi. Unda shoirning adolatsiz qurilgan dunyo tartibotidan noroziligi, vafo ko'rsatib, bevafoqliq topgani, hajr otashida qovrilgan yiirakning fig'onlari aks etgani uchun ham:

Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdan,
Ki, men bar qayga borsam, dod etarman, dod dastingdan

misralarini har band so'ngida takror keltiradi. Bu hoi she'rda lirik qahramon kayfiyatining to'liq ifoda topishiga imkon beradi.

Mashrab she'riyati, yuqoridagi misollardan ma'lum bo'lganidek, millionlab kishilar qalbidagi ezgu va olijanob tuyg'ularni, haqqa, haqiqatga bo'lgan tashnalikni topib ifoda etgan she'riyatdir. Shoir o'z asarlarida o'z tuyg'ularini shunchaki ifodalagan emas, balki baland pardalarda tarannum qilgan. Shu sababli ham bu asarlar asrlar ardog'ida keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot. (majmua). 10-sinf uchun.T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 49-57-betlar



“ZARBULMASAL” ASARI BADIY TAHLILI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada “Zarbulmasal” asrining tahliliga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: “zarbulmasal”, maqol, matal, ramzli hikoya, chordevor, pandnoma, risola.

Gulxaniy ijodiy faoliyatidagi eng muhim fazilat shundan iboratki, u o'z davrining folklorshunosi sifatida o'zbek xalqining beqiyos donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to'plab, mashhur „Zarbulmasal“ asarini yaratdi.

„Zarbulmasal“ — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. Lekin hayvonlar kechirgan voqealarga chalg'ib qolmaslik kerak. U, aslida, odamlar haqidagi asardir. Shoir qush haqidami, tuya haqidami, chayon yoki toshbaqa haqidami yozmasin, hamisha odamni ko'z oldiga keltirib asar yozgan. U, avvalo, bir tildagi masallarning oddiy to'plamini anglatgan. Shuningdek, bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal“ deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo'nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal“ atalgan. Bu o'rinda „zarbulmasal“ — maqol, matal, ramzli hikoya ma'nosini anglatuvchi so'z. Shuningdek, zarbulmasal atamasini maqol va masallar yig'indisi, majmuyi ma'nosida ham ishlatish mumkin. Chunki „zarb“ so'zi ko'paytirish ma'nosini ham anglatadi. Bunga masal, maqol, hikmat va matallardan o'rinli foydalanish evaziga erishilgan. „Zarbulmasal“dagi hikoya ichida hikoya yo'sinida berilgan „Maymun bilan najjor“, „Tuya bilan bo'taloq“, „Toshbaqa bilan chayon“ kabi masallar zimmalariga yuklangan badiiy vazifalaridan tashqari ham mustaqil estetik qimmat kasb etib, asarning umumiy jozibasini oshirishga xizmat qilgan. „Zarbulmasal“da qushlar timsolidan foydalanib, insonlar va ular orasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan. Asarda inson ruhiyati tasviri alohida berilmay, qushlarning o'zaro suhbatlari zamiriga singdirilgan. „Zarbulmasal“da uchraydigan badiiy obrazlarni: a) qushlar obrazlari; b) hayvon-hasharot obrazlari; v) odam obrazlari tarzida uchga bo'lish mumkin. Yozuvchi qushlar vositasida ularning prototiplari bo'lmish odamlarga xos jihatlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ayni vaqtda, har bir qushga xos bo'lgan individual belgilarni berishni ham yoddan chiqarmaydi. Ko'pincha, qushlarning otida ularning fe'li aks etadi. Chunonchi, Ko'rqushning ko'rliigi, Boyqushning sovuqnafas va xasisligi, Kordonning korchalonligi, Kuykanakning kichik jussali hamda kuyunchakligi laqab bilan tabiatning mos kelishiga misol bo'la oladi. Yapaloqqush bilan Boyqush asardagi markaziy qahra-monlardir. Asarning sujeti ana shu timsollarning o'zaro quda-anda bo'lishiga bog'liq voqealar asosida rivojlanadi. Yapaloqqush — bir qadar davlatmand kimsa timsoli. U o'zidan ham sarmoyalibroq, taniqliroq kishi bilan quda bo'lishni orzu qiladi. O'zidan balandlarga intilgani uchun ham o'g'liga Kulonkir sulton deb ism qo'yadi, Boyqush bilan quda bo'lishga urinadi. Adib Yapaloqqush misolida qo'lidan kelmaydigan ishga urinadigan, boylig-u shon-shuhratga mukkasidan ketgan kimsa obrazini yaratadi. U o'z holini bilmaydi, bildirganlarida esa tan olgisi kelmaydi. Yapaloqibining: „O'glimning asbobi kulangirliigi minqori bilan changalidan ma'lum va ravshan emasmu?!“ — degan gaplarida uning shaxsiyatiga xos maqtanchoqlik, zo'ravonlik sifatleri ma'lum bo'ladi. Kulonkir sulton ham onasiga munosib farzand. U — qushlar shohining pahlavoni. Kuch-qudrati bilan o'zgalarda dahshat uyg'otishga mohir. Lekin yaxshi tarbiya ko'rmagani, tabiatida yetuklik bo'lmagani uchun ham Ko'rqush unikiga borganda mehmonga qanday muomala qilishni bilmasligini namoyon qiladi. Asardagi mezbonlik tutumi tasviri Kulonkir sulton va uning xizmatkorlarining odamgarchiligiga baho berishga asos bo'ladi. Mehmonga sarqit ovqat taklif etishi, uning ham ko'pini o'zi yeb qo'yishi singari hllarda befarosat, yebto'ymas, tarbiyasiz Kulonkirning asl qiyofasi namoyon bo'ladi.

Boyqushning kibri, qattiqliigi, boshqalarni mensimasligi, o'zgalarning fikri bilan hisoblashmasligi asar matnida juda qiziqarli yo'sinda ko'rsatilgan. Ko'proq qalin undirish uchun qizining baxtidan kechishga ham tayyorliigi uning shaxsigaga xos xususiyatlarni yorqin aks ettiradi. Asarda Boyqushga „Anda Ko'rqush ko'rdiki, xasis-u haris, agar ming chordevordin bir chordevor kam bo'lsa, o'tuz tishini bir-biridin sindirur“, degan ta'rif beriladi. Agar Boyqush, Yapaloqqush, Ko'rqush, Kordon, Turumtoy, Kulonkir singari qushlarga xos sifatlar ularning o'zaro muomala-munosabatlari asnosida ko'rsatilgan bo'lsa, bir qator qushlarga tegishli jihatlari ularga boshqalar bergan tavsiflar



asosida ochilgan. Jumladan, Yapaloqqushning do'sti — Sho'ranulga bergan ta'rifi qarg'a tabiatiga xos xususiyatlarni yorqin namoyon etishidan tashqari, bu ta'rifda o'sha davrdagi ayrim odamlarga tegishli bo'lgan sifatlar ham aks etganligi „Zarbulmasal"ning umumlashma kuchini ko'rsatadi. Asarda qarg'a Sho'ranul yashaydigan yurt qushlarining podshohi Malik Shohinning pahlavoni Kulonkirning uylanishiga saxiylik qilishi sabablari hayotiy jihatdan ishonarli asoslangan. Uning qo'l ostidagi odamlariga munosabatini baholashda asar matniga tayanilsa, ham Malik Shohinning tabiati ochiladi, ham Gulxaniyning tasvir mahorati ilg'ab olinadi. Kordon xazinachining kelimga beriladigan mahr miqdorini aniqlash borasidagi mulohazasi uning shaxsiga beriladigan bahoning asosi bo'lishi mumkin. Timsolning mohiyatini anglagan sari o'quvchi Kordonning himmat kamarini g'aravdek bir necha yerdan bog'lashining sababini anglab olishi osonlashadi. Kordonning Turumtoy bilan suhbatida keltirilgan maqollarning nechog'lik o'z o'rnida ekanligini, bu maqollarning suhbatdoshlar tabiatini ochishdagi ahamiyatini anglash asar badiiy qudratini anglash imkonini beradi. Farg'ona bilan Buxoro va Zarbulmasal"ning majoziy ma'nosi, asardagi har bir qush obrazining biror toifaga mansub jonli odamni ifodalashi, bir-birini „cho'qib" emas, balki „chaqib" olishga tayyor, tili zahar qushlar timsoli Gulxaniy tomonidan ayni odamlarga xos illatlarni aks ettirish maqsadida tasvirlanganligi anglab yetilgandagina asardan chiqariladigan badiiy va hayotiy ma'noning qimmatini yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent, 2006
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent, «O'qituvchi», 1976.



ҚУРЪОНИ КАРИМДА ТАКРИР САНЪАТИНИНГ МОҲИЯТИ

Маҳмудов Қодирхон Алимович
Самарқанд ДЧТИ II курс магистри,
Имом Бухорий халқаро
илмий-тадқиқот маркази илмий ходими
Телефон: +998(93)3553975
qodirxon.ar@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада адабиётшунослик ва Қуръони каримда тақрир санъатининг ўзига хос жиҳатлари, тақрир сўзининг луғавий ва истилоҳий маънолари ҳамда аҳамияти ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Такрор, тақрир, таъкид, тасдиқ, қайтариш, боғланиш, лафз, лисоний, нотик, луғавий, истилоҳий, мажозий.

Такрорлаш қадимий ва замонавий адабиётшуносликнинг энг кўзга кўринган лисоний, риторик ва услубий ҳодисаларидан биридир. У маънони бойитиш учун таъсирчан имкониятларни ўз ичига олган. Шунингдек, кўпгина стилистик ҳодисаларга хос бўлган бадиий эстетикага ҳам эга. Мунаққид ва нотиклар тақрирнинг кадр-қимматини, унинг умуман адабиётда, хусусан, шеъриятдаги аҳамиятини англаб етган. Ибн Асир тақрирни бундай таърифлаган: “Билингки, бу нотиклик илмининг жангчисидир ва у нозик манбадир” [6: 3].

Тақрир сўзи араб тилидаги такрор, такрорлаш каби маъноларни билдиради. Тақрир лафзи ўзбек тилида камдан-кам қўлланилиб, асосан, шеъриятда ишлатилади.

Тақрир усули арабларнинг маълум бўлган услубларидан бири бўлишига қарамай, у нотикликнинг фазилатларидан ҳисобланади. Уларнинг одатига кўра, муҳим масалалар ва ёрдам кўрсатишга кўпроқ эътиборли бўлган. Хансоакасига марсия айтган сўзи қандай ҳам чиройлидир:

ران مسأرى فملع من أك هب فادهل متأتل ارخص نإو
راحنل وتشن اذا ارخص نإو انديسو اني لاول ارخص نإو
Сахр ила йўлбошчилар йўл топур,
Устида олови бор нишонадир,
Сахр бизнинг волийимиз, хожамиз,
Душман хужум қилганда қўргонимиз [3: 252].

Такрорлаш сўзи ва унинг ҳосилалари араб тилида бирор нарсага яна бир бора қайтиш ёки уни қайта-қайта келтириш [4: 90; 16: 19] маъноси атрофида айланади.

Луғатда такрор ركال [ал-карру] сўзидан келиб чиқиб, такрор маъносини англатади. Шунингдек, қайтариш ва боғланиш маъносини ҳам билдиради. Шунинг учун бирор нарсани қайта-қайта такрорласа, ركال [каррараш шайъа] дейилади.

كارك [каррату] сўзи бошқа бирикма билан ريرككتل [ат-такриир] кўринишида ҳам келади. Луғатшунос ва муфассир аллома Розий “Мухтор” асарида бундай деган: “ركال [ал-карру] сўзи қайтишдир, бирор нарсани қайта-қайта такрорласа, ريرككتل [каррараш шайъа тақриирон ва такроорон], дейилади” [12: 236].

Фарро ва кўфалик тилшунос олимлар لاعفت [тафъаал] вазнини ليفت [тафъиил] манзилига қўйган. “Алиф” ҳарфи “йо” ҳарфидан эваздир. “Алиф” ҳарфи билан راركت [такроор] сўзини “йо” ҳарфи билан келган ريرككت [такриир] сўзи ўрнига қўйган [9: 316].

Истилоҳдаги маъносига келсак, таъкид ёки эътибор, ё улуғлаш кабилар учун бир контекстда сўз ёки талаффузни бир неча марта такрорлашдир. Бу таъриф муфассир Заркашийнинг: “Гап ёки синонимининг маъносини аниқлаш учун қайтаришдир”, [10: 10] деганига мос келади.

Эҳтимол, ушбу таъриф орқали фақат бир сўздаги такрорланишни тушунармиз. Такрорланиш бир нечта сўзларни ўз ичига олган жумлада ҳам бўлиши мумкин. Аммо бу такрорлаш битта контекстда бўлишини ҳам шарт қилиб қўйди. Агар контекст бошқача бўлса, ҳатто баъзи сўзлар такрорланган бўлса ҳам, мавзу ўзгаргани боис такрорлаш ҳисобланмайди.

Такрорга боғлиқ бўлган فداعال [ал-иъаадату], ديكوتل [ат-такиду] каби маъноси яқин



сўзлар ҳам мавжуд бўлиб, уларни биринчи марта ўқиётган киши такрор билан фарқи йўқ, деб ўйлаши мумкин. Аммо буюк алломаларимиз бу фарқларни нозиклигига қарамасдан бизга тушунтириб берган. Бу эса араб тилининг баъзи афзалликларини очиб берган.

Луғатшунос олим Абу Хилол Аскарӣ راركت [такроор] ва فداع [иъаадату] сўзларининг ўзига хос фарқни изоҳлаб бундай деган: “راركت [такроор] ва فداع [иъаадату] сўзларининг фарқи шундаки, راركت [такроор] бирор нарсани бир марта ва кўп марта такрорлаш, فداع [иъаадату] эса, фақат бир марта қайтариш билан бўлади”. Сўнг масалани янада ойдинлаштириб: “اذك نالف داعأ [аъаада фулаанун казаа], деса, фалоннинг бир марта қайтаришидан бошқани ифодаламайди. Агар اذا ررك [изаа каррара], деса, унинг сўзи ноаниқ бўлиб, у буни икки ёки ундан кўп марта қайтарганини билмайди. Авом одам гапга тушинмай уларни чалкаштириб юборади”, [2: 39] деган.

راركتلا билан ديكوتلا билан сўзларининг нозик фарқлари бор. Бу тафовутни балоғат илми олимлари кўрсатиб берган. Зубайдий бу фарқни бундай тақдим этган: “ديكوتلا нинг шарти доимийлик, бирлашиш бўлиб, учтадан ошмаслигидир. راركتلا эса, икки масалада унга зид бўлади. Шу сабабдан Ар-Рахмон сурасининг бир неча оятларида Аллоҳнинг: ءالآيآبف “**Бас, (эй инсонлар ва жинлар!) Раббингизнинг қайси неъматларини инкор этасиз?!**” деган сўзи, шунингдек, Мурсалот сурасининг бир неча оятларида Аллоҳнинг: لآيؤ “**У кунда (хаётлик вақтларида қиёматни) инкор этувчилар ҳолига вой!**” деган сўзи ديكات (таъкид, тасдиқ) эмас راركت (такрор) ҳисобланади. Чунки уч мартадан зиёддир [13: 28].

Заркаший “Ал-Бурҳон” асарида такрор ва таъкид ўртасидаги яна бир фарқни қўшиб: “Шуни билингки, такрор таъкиддан кўра етукроқдир. Чунки такрорда асосланиш бўлади. (Яъни бир томондан бўлса ҳам, биринчисидан фарқ қиладиган янги маънони асослайди). У таъкиддан кўра етукроқдир. Таъкид биринчи маънонинг иродасини ва чегараси йўқлигини белгилайди. Шунинг учун ҳам Замахшарӣ Аллоҳ таолонинг: نؤمؤلؤت فؤسؤنؤلؤك “**Йўқ! Яқинда (бунинг оқибатини) билурсиз.**” “Яна бир бор йўқ! Яқинда билурсиз!” [1: Такосур, 3-4] деган сўзи ҳақида: “Иккинчиси таъкид эмас, асослашдир”, деган [10: 11].

Юқорида араб тилидаги “такрор” ҳақида бир қанча маълумотга эга бўлдик. Аммо бунинг қандай ҳолатда бўлиши, мумкинми ёки йўқми, шунга эътибор қаратишга ҳаракат қиламиз.

Яна эътибордан четда қолдириб бўлмайдиган нарса шуки, “такрор” араб тилининг эшикларидан бири, сўзлашув ва фасохат йўлидир. Имом Суютий бундай дейди: “Араб тилидаги “такрорлаш” арабларга маълум усуллардан сўз фани санъати бўлиб, нотиқликнинг фазилатларидан биридир” [17: 57]. Араб тилидаги ҳар бир такрор яхши нарса эмас, деган киши, фасохатга тухмат қилган бўлиб, араб тилидан беҳабар ҳисобланади.

Бу борада риторика ва адабиёт санъати алломаси Жохиз буни янада аниқроқ баён қилиб бундай деган: “Агар одамлар такрорлашдан воз кечсалар, улар изланишдан тийилади ва эътиборлари пасаяди. Кимнинг эътибори кам бўлса, билими ҳам кам бўлади. Кимнинг илми кам бўлса, унинг фазилати ҳам камайди. Кимнинг фазилати кам бўлса, камчилиги кўпаяди. Кимнинг илми ва фазилати кам бўлиб, камчилиги кўп бўлса, ўзига келган яхшилик учун шукр қилмайди ва қилган ёмонлиги учун афсусланмайди” [5: 210]. Бу матн орқали бизга араб тилида такрордан воз кечиш, сўзловчига нуқсон берадиган камчилик экани аён бўлади. Жохизнинг иборасини Қуръонда такрорӣ сўзлар келганини айб деб ҳисоблаган ва унинг ўрнига муқобил ибораларни қидирганларга қарата йўналтиришимиз мумкин. Улар худди Қуръонни узрли деб муносабат билдириб, бунинг олдини олиш керак бўлган камчилик деган асосда уни такрорлашдан химоя қилади.

Шунга қарамай баъзи олимларнинг тўғри фикр айтганини англаймиз. Аммо улар ҳам ҳар бир такрор тўғрисида бундай фикрда эмас. Муҳаммад Қутб Қуръонда “такрор” йўқ, деганлардан бири. Унинг фикрича, “такрор” деб ҳисобланган масалан “жаннат мевалари” муташобих (бир неча маъно тушуниладиган ва бир маънога қатъий жазм қилинмайдиган оят)лардандир [11: 147].

Фозил Ҳасан Аббос Қуръонда “такрор” бор, деган даъвои қабул қилмайди. Унга кўра, “такрорӣ” деб ҳисобланган мисралар яхшилаб текширилса, уларда кўп ҳикмат борлиги маълум бўлади [14: 21].

Аксар араб шоирларнинг такрордан фойдаланиб, муваффақиятга эришганини, баъзиларининг муваффақиятсизликка учраганига гувоҳ бўламиз. Бу фойдаланувчининг



ўзига боғлиқ. У такрорни фойдали риторик тарзда ишлата олдимми ёки унинг олдида ожизлик қилдимми? Ёки такрорни ишлатишда ноўрин услубдан фойдаландимми? Ана шунга эътиборли бўлиш керак бўлади.

Шунинг учун ҳам Ибн Рашиқ Қайрвоний “Ал-Умда” асарида бундай деган: “Такрорнинг чиройли ва хунук бўладиган ўринлари бор” [8: 698].

Мақтовга сазовар тақрир ишлатилган шеърга мисол қилиб, жоҳилият шоирларидан бири Ҳорис ибн Аббоднинг қасидасини кўрсатиш мумкин: “يَمِ قَمَاعِنَ لَا طَبْرَمَ ابْرَقَ [қоррибаа марбатан наъамаати миннии] (Менга отнинг боғланадиган жойи яқинлашди)”. Бу жумла эллик мартадан зиёд такрорлаган [15: 156]. Аксар байтларнинг бошида ўзини эҳтиёт қилиш ва огоҳлантириш қўлланилади. Такрорлаш ҳам огоҳлантиришнинг бир усулидир.

Шеърига такрорни киритиб, аммо шеъри бузилганлар ҳам мавжуд. Бундай шеърларда такрорлаш, бир-бирдан ажралган тасдиқлар билан ишлатилган. Жумладан: Абу Ҳаммомнинг: “رايد رايديلا الو تنأ تنأ ال [лаа анта анта валад дийаару дийаар] (сен сен эмас, диёр диёр эмас)”. дегани. Абу Тоййиб Мутанаббийнинг: “م ن تنأ تنأ ل ي ب ق [қобиилун анта анта ва анта минхум] (сен сен эмас, диёр диёр эмас)” [7: 20], дегани.

Бадий адабиётда ҳам, Қуръони каримда ҳам ғоявий ниятни инсонларга тўла етказиш учун қўлланган усуллардан бири такрор экан. Қуръонда Аллоҳ таоло бандаларига маълум фикрини уқтирмақчи экан, айрим сўзларни, гапларни такрор-такрор айтган.

Қуръони каримда тақрир санъатини кўп учратамиз. У араб адабиёти эстетикасини янада оширишга сабаб бўлган. Бусанъат ортида ақлларни ҳайратга соладиган, қалбларни забт этувчи ҳикмат ва сирлар бор.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: Тошкент ислом университети, 2004.
2. Абу Ҳилол Аскарый. Ал-Фуруқул луғавия. –Қоҳира. Дорул илми вас сақофа.
3. Абулфараж Асбаҳоний. Ал-Ағоний. Ж. 9. –Байрут. Дору садр, 2008.
4. Али Журжоний. Ат-Таърифот. –Байрут. Дорул китобил арабий, 1985.
5. Жоҳиз. Расоилул Жоҳиз. –Байрут. Дорул кутубил илмия, 1983.
6. Зиёуддин ибн Асир. Ал-Масалуссоир. Ж.3. –Қоҳира. Дор нахза.
7. Ибн Асир. Ал-Масалус соир. Ж.2. –Байрут. Ал-Мактабатул асрия, 1995.
8. Ибн Рашиқ Қайрвоний. Ал-Умда фи маҳосиниш шиъри ва одобих. –Қоҳира. Мактабатул хонжий, 2000.
9. Ибн Саййидиҳ. Ал-Мухассас. Ж.4. –Байрут. Дор ихёит туросил арабий, 1996.
10. Муҳаммад Заркаший. Ал-Бурҳон фи улумил Қуръон. Ж.3. –Байрут. Дорул маърифа, 1971.
11. Муҳаммад Қутб. Диросот Қуръония –Байрут. Доруш шарук, 1983.
12. Муҳаммад ибн Абу Бакр Розий. Мухторус сихоҳ. –Байрут. Мактабату Лубнон ноширун, 1995.
13. Саййид Маҳмуд Зубайдий. Тожул урус. Ж.14. –Кувайт. Ат-Туросул арабий, 1974.
14. Фазл Ҳасан Аббос. Иъжозул Қуръон вал Балоғутун Набавия. –Байрут. 1973.
15. Хайруддин Зириклий. Ал-Аълум. Хайруддин Зириклий. Ж.2. –Байрут. Дорул илм лил малойин, 2002.
16. Халил ибн Аҳмад Фароҳидий. Китобул айн. Ж. 4. –Байрут. Дорул кутубил илмия, 1985.
17. Muhammad Luthfil Anshori. Lisania: Journal of Arabic Education and Literature Vol.1, No.1, 2017.



ДОСТОНЛАРДА АВАЗХОН ОБРАЗИНИНГ ХАЛОСКОРЛИК ФАОЛИЯТИ

Матязова Нилуфар Сабировна

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги

Тошкент ахборот технологиялари университети

Урганч филиали “Гуманитар ва ижтимоий фанлар”

кафедраси доценти, PhD

Телефон: +998914281800

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада Сафар Маҳрам билан Авазхон саргузашти баён этилади. Сафар Маҳрам кўпни кўрган, айёр, шу билан бирга шошқалоқ, мунофиқ шахс эканлиги, Авазхон у билан бирга бориб, кўпгина қийинчиликларни мардона енгиб, ўзининг халоскорлик қиёфасини намоиш этади, жангговарлик, шижоатчилилик каби эпик қаҳрамонларга хос хислатлар ва эпизодларга эътибор қаратилиши кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Достон, бахши, эпик, эпизод, шохобча, пафос, туркум, қаландар, образ.

“Гўрўғли” туркумида Авазхон фаолиятининг ёрқин бир саҳифасини ёритувчи яна бир шохобча “Сафар Маҳрам” номи билан юритилади. Бу достон ёзма вариантда берилмаган. Унинг матни Бола бахши ижросида ёзиб олинди, “Гўрўғли” мажмуасида чоп этилган [1].

Достоннинг номи “Сафар Маҳрам” деб номланса-да, унда асосий ҳаракатланувчи фигура Авазхондир.

Туркумдаги воқеалар бир-бири билан узвий боғланган бўлиб, ушбу шохобчадаги воқеалар “Хирмондали” шохобчаси финалидаги тафсилотларнинг давомидир. Ўша достон ниҳоясида Гўрўғли уста Бодомнинг кизини олиб қочиб келиб, Сафар Маҳрамни иккинчи марта уйлантирган эди. Ўша қиз бир куни эркак либосини кийиб, Маҳрамнинг отига миниб, ўз элига равона бўлади. Сафар Маҳрамнинг илтижоларига қулоқ солмайди. Натижада Сафар Маҳрам Гўрўғлидан маслаҳат сўрайди ва Авазхон билан Ғиротни олиб, Бастом шаҳрига жўнаб кетади. Бастомга бориб, 40 қаландар ёрдамида ўша элга бостириб келган Ёзим барзанги билан курашиб, кизни олиб кетиш тадорикини кўрадилар. Бироқ ўша пайтда эҳтиётсизлик қилиб, Сафар Маҳрам барзангига асир тушади. Авазхон бундай мураккаб вазиятда ўзини йўқотмасдан, тўғри йўл тутиб, қаландарлар ёрдамида Ёзим барзангини енгиб, Сафар маҳрамни Озод қилиб, Гулширинни ҳам олиб, барзангини 40 йигити билан асир тушуриб, Гўрўғлининг хузурига олиб келади. Гўрўғли Ёзим барзанги билан дўст тутиниб, уни озод қилади.

Достонда, асосан, Сафар Маҳрам билан Авазхон саргузашти баён этилади. Сафар Маҳрам кўпни кўрган, айёр, шу билан бирга шошқалоқ, мунофиқ шахс. Авазхон у билан бирга бориб, кўпгина қийинчиликларни мардона енгиб, ўзининг халоскорлик қиёфасини намоиш этади. Достонда уруш-саваш эпизоди, жангговарлик, шижоатчилилик каби эпик қаҳрамонларга хос хислатлар кўпчиликти ташкил этади.

Авазхон фаолияти билан дахлдор достонлар орасида ушбу асар алоҳида ўрин тутди. Унда Авазхон Гўрўғли бажарадиган ишларни ўзи мустақил амалга оширади. Шунинг таъкидлаш керакки, у Гўрўғли анъаналарини давом эттириб, фалсафий оҳангга монанд шеъринг пандномалар айтади:

Мард номардни ёр айламас,
Тутган дўстин хор айламас,
Минг йилда ҳам кор айламас,
Ёмғир ёғса тош устина.
Бало келур опил-топил,
Авазхон, бўлмағил ғофил,
Тўпилсанг мард билан тўпил,
Лош қўшилсин, лош устина. (Гўрўғли, 244-бет)

Достонда Бола бахшининг ижодкорлик қобилияти намоён бўлган. Унинг насрий қисмлари халқ тилининг ноёб иборалари, лексикасидаги бўёқдор сўзлар билан эшитувчи эътиборига сазовор бўлади. Матнда: “Бир эди хангилим, икки бўлди шангилим” (Томчидан қочиб ёмғирга дуч бўлдим маъносида), “Бўрини минг боқсанг, ўсган тўқайига қараб қочади” “Ёмонлик ёддан чиқмас”, “Югурганники эмас, буюрганники” каби кўпгина мақоллар,



халқано иборалар ишлатилган. Ушбу хусусият шеърий мисралар жисмига ҳам сингдириб юборилган:

Йигитда бўлса диёнат,
Дўстга айламас хиёнат.
Пок бўлса йигитнинг дили,
Очиқ бўлур мудом йўли.
Мард йигит молин яширмас,
Қилгон ишини оширмас. (Гўрўғли, 349-бет)

Достон ҳажман унчалик катта эмас. Унда ҳаммаси бўлиб, 348-мисра шеър қўлланилган. “Сафар Маҳрам” шохобчаси “Гўрўғли” туркумининг бошқа версияларида учрамайди. Хоразм “Гўрўғли” туркуми достонлари шу туркумга кирувчи туркман достонларига ўхшашдир [2]. Шундай бўлишидан қатъий назар, Хоразм “Гўрўғли”сидаги айрим шохобчалар туркман версиясида кўзга ташланмайди. С.Рўзимбоевнинг таъкидлашича, туркман версиясида бўлмасдан, Хоразм “Гўрўғлиси”да куйланиб келинган айрим достонлар Суяв бахши репертуари билан боғлиқдир. Бу достонлар, асосан, Суяв бахшининг шогирди Аҳмад бахши орқали Хоразмда тарқалган. Суяв бахши ижодий репертуари эса туркман фольклоршунослари томонидан ўрганилмаган [3].

Ушбу фикрга қўшилиш мумкин. Негаки Суяв бахши Пўрси достончилиқ мактабининг етакчи бахшиси бўлиб, уни Бола бахши ҳам ўз устози сифатида тан олган. Пўрси (Туркменистоннинг ҳозирги Бўлдимсоз тумани) билан Манғит (Аҳмад бахши яшаган туман) ораси 30-40 километр масофани ташкил этади. Шундай экан, “Сафар Маҳрам” достонининг Суяв бахши репертуари билан алоқадор бўлганлигига шубҳа қилмаса ҳам бўлади. Бола бахши эса уни ҳар томонлама ижодий қайта ишлаб, оригинал достон сифатида шакллантира олган ва Аваз фаолиятини юксак пафос билан куйлаб, уни эпик қаҳрамон даражасига олиб чиқа олган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гўрўғли. 328-354-бетлар.
2. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. С. 135.
3. Рuzимбаев С. Эпос “Гороглы» и хорезмский бахши, Материалы международной научной конференции, Дашогуз-2009. С. 345

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000